



*hokimligi
mактабгача va мактаб та'lими
boshqarmasi*

*mактабгача va
мактаб та'lими bo'limi tasarrufidagi
—umumiy o'rta ta'lim mакtabi
tarix fani o'qituvchisi*

*ning
20__-20__-o'quv yili 7-sinflar iqtidorli
o'quvchilar uchun
“YOSH TARIXCHI” NOMLI*

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

To‘garak a‘zolari haqida ma’lumot

Nº	Familiya ismi va sharifi	Tug‘ilgan sanasi	Sinfı	Manzili (to‘liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O‘tkazilgan xona

“ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari

To 'garak rahbari

“ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari To‘garak rahbari

**20__-20__-o‘quv yili iqtidorli o‘quvchilar uchun tuzilgan “Yosh tarixshi”
to‘garagining
ISH REJASI**

Nº	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Sharqiy slavyanlar. Kiev Rusi davlati.			
2.	Yevropa xalqlarining madaniyati			
3.	Arabiston ilk o‘rta asrlar boshlarida.			
4.	Arab xalifaligi.			
5.	Hindiston.			
6.	Xitoy.			
7.	Osiyo mamlakatlari madanyati.			
8.	Yevropada o‘rta asr shaharlari.			
9.	Osiyo mamlakatlarining o‘rta asr shaharlari.			
10.	O‘rta asrlarda xristianlik.			
11.	Salib yurishlari.			
12.	Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi			
13.	General shtatlar			
14.	Yuz yillik urushning boshlanishi va uning dastlabki davri			
15.	Fransiyada mutlaq monarxiya.			
16.	Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi			
17.	Angliya o‘rta asrlar so‘ngida			
18.	Germaniya.			
19.	Rus knyazliklari.			
20.	Rusning bosqinchilariga qarshi kurashi.			
21.	Rus knyazliklarida markazlashish jarayonlari.			
22.	Yevropa madaniyati.			
23.	G‘arbiy Yevropada me`morchilik,san`at va adaboyot.			
24.	Saljuqiyalar davlatlari.			
25.	Usmonli turklar davlati			
26.	Mo‘g‘ullar davlati			
27.	Oltin O‘rda xonligi.			
28.	Xitoy.			
29.	Yaponiya.			
30.	Koreya			
31.	Hindiston.			
32.	O‘rta asrlarda Amerika.			
33.	Afrika xalqlari O‘rta asrlarda			
34.	Osiyo, Amerika va Afrika xalqlari madanyati.			

Mavzu: Sharqiy slavyanlar. Kiev Rusi davlati.

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta`limiy maqsad:-o'quvchilarga Sharqiy slavyanlarning joylashuvi, ijtimoiy tuzumi. Kiev Rusi davlatining tashkil topishi va feodal munosabatlar. Vladimir Monomax knyazligi haqida ma'lumot berish;

Tarbiyaviy maqsad: - o'quvchilargavatanimiz va o'zbek xalqining o'rta asrlarda boshidan kechirgan g'oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o'rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: -o'quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobilyatini, shakllantirish.

Mashg'ulot turi: yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg'uloti.

Mashg'ulotning metodi: suhbat, tushuntirish, savol-javob, aqliy hujum, fikrlar testi, klaster

Mashg'ulotning jahozi: Mashg'ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlı ko'rgazma, slayd, kompyuter.

I.Tashkiliy qism:

a) Salomlashish,

c) sinf tozaligini kuzatish,

b) davomatni aniqlash,

d) o'quvchilarni Mashg'ulotga tayyorlash.

II.O'tilgan mavzuni takrorlash:

O'qituvchi o'tilgan Mashg'ulotni uyga vazifasini tekshiradi, o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilarni guruhlarga ajratadi. Guruhlarga "Rasmlar so'zlaganda" topshirig'i beriladi. Guruhlar rasmlarga qarab knyazlarga ta`rif beradilar..

1-guruh

2-guruh

3-guruh



25-rasm.
Bulg'orlar xoni
Asparux.



26-rasm.



27-rasm. Meshko I.

Guruhlar taqdimot qilladilar, o'qituvchi guruhlarni rag'batlantiradi va kamchiliklarni to'ldiradi.

III.Yangi mavzu bayoni:

Reja:

- 1.Davlatning tashkil topishi.
- 2.Xazarlarga qarshi kurash.
- 3.Xristianlikning qabul qilinishi.
- 4.Madanyat.
- 5.Qonunchilik
- 6.Kiyev Rusi va qipchoqlar.

Yilnomalarda yozilishicha, sharqiy slavyan qabilalari varvarlarga (skandinaviyalik normannlarga) elchilik jo'natib, o'zlariga knyaz yuborishlarini so'raydi. Bu taklifga binoan aka-uka: Ryurik, Sineus va Truvorlar Rusga kelib, Ryurik Novgorodda, Sineus Beloozeroda, Truvor Izborskda knyazlik qiladilar. Ko'p o'tmay ukalari vafot etib, Ryurik yakka xukumronlik qila boshlaydi.

Yilnomada yozilishicha, Ryurik 879-yili vafot etib, o'g'li Igor yosh bo'lganidan hokimiyat uning qarindoshi Olegga o'tadi. Uning boshqaruvi paytida Kiyev Rusi tarixining boshlanishi bilan bog'liq muhim voqeа bo'ladi. Oleg 882-yili o'z lashkari bilan Kiyevni egallab, ayni paytdan yozma manbalarda Kiyev Rusi nomini olgan davlatga asos soladi.

Oleg va keyingi knyazlarning asosiy vazifalari: Xazar xoqonligi hukmidan ozod bo'lish, sharqiy slavyan qabilalarini birlashtirishni davom ettirish, tashqi dushmanlardan davlat chegaralarini asrash, Vizantiya bilan manfaatli savdo munosabatlarini o'rnatish bo'ladi. Slavyan qabilalarini birlashtirish siyosati Olegning qo'lida shimolda Ladoga ko'lidan, janubda Dneprning quylisligacha yerlarni to'planishiga imkon beradi. Knyazning qo'shini 907-yili Konstantinopolga hujum qilib, Vizantiyaliklardan katta to'lov olishga erishadi. So'ng shartnoma tuzilib unga ko'ra, Rus savdogarlariga Vizantiyada bojsiz savdo qilishga ruxsat beriladi

Svyatoslav 964-yili 22 yoshida knyazlikni olgandan so'ng qo'shini bilan sharqqa yurish boshlagan. Ayni paytda Turk xoqonligining parchalanishidan Itil (Volga) va Don daryolari oralig'ida tashkil topgan Xazar xoqonligi qudratli davlat edi. Svyatoslav xazarlarning asosiy kuchlarini mag'lub etib, ularning poytaxti Itil shahrini egallaydi. Keyinchalik Svyatoslav Bulgariyaga, ko'chmanchi bijanaklarga, Vizantiyaga qarshi urushlar olib boradi. Uzoq davom etgan yurishlarda muvaffaqiyatsizliklarga uchragan knyaz Svyatoslav Kiyevga qaytishida Dnepr bo'yalarida ko'chmanchi bijanaklar bilan jangda halok bo'ladi.

Svyatoslavning vorislari orasidagi kurash 972-980-yillari bo'lib, uning so'ngida Vladimir taxtni egallaydi. Endilikda yosh knyaz oldida mamlakatdagi boshboshdoqlikni bartaraf etish vazifasi turar edi. Dastlab u slavyan qabilalarining isyonini bostirib, Kiyev Rusi chegaralarida yangi mudofaa qal'alarini qurdiradi. Shundan so'ng knyaz Dunay bo'yalarida yashagan bulg'orlarga qarshi harbiy yurish uyshtiradi. Ammo rus tarixida Vladimir istelochi emas, balki 988-yili ruslarni xristian dinini qabul qildirgan hukmdor sifatida qadrlanadi. Qolaversa, uning boshqaruvi davrida mahalliy knyazlar sulolalari tugatilib, ularning o'rniga Vladimirning o'g'illari noiblikka tayinlanadi. Lekin boshqaruvning bu shakli ham muammolarsiz kechmaydi. Knyazning katta o'g'li, Novgorod noibi Yaroslav Kiyevga boj to'lashdan bosh tortadi. Vladimir unga qarshi yurishga tayyorgarlik paytida 1015-yili vafot etadi.

Donishmand nomini organ Yaroslav davrida rus yerlarining dastlabki yozma qonunlari to'plami («Rus haqiqati») tuzilib, uning vorislari davrida u yangi moddalar bilan to'ldirib boriladi. «Rus haqiqati»ga fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha qonunlar kiritilgan. Unda faqat jinoyat va jazo haqida emas, o'sha zamon rus jamiyati ijtimoiy munosabatlari, odat, udum va an'analari bo'yicha ma'lumotlarni ham olish mumkin, eng og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilangan bo'lsa-da, «Rus haqiqati» dagi ko'pchilik moddalarda jarima to'lash ko'zda tutilgan. Yaroslav Donishmand vafotidan oldinroq vorislariga turli knyazliklar noibligini berar ekan, ular orasida hokimiyat uchun kurashishni oldini olishga harakat qiladi. IV.Mustahkamash: Yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilar yana guruh bo'lib ishlaydilar. Har bir guruhga jadval to'ldirish topshirig'i beriladi. Qaysi guruh birinchi to'ldirsa boshqa guruhlarni ishi ham to'xtatiladi va eng yaxshi javob yozgan guruh rag'batlantirib baholanadi.

Kiyev Rusi davlati humdorlari faoliyati haqida ma'lumot yozing				
Oleg	Igor	Svyatoslav	Yaroslav	Vladimir Monamax
1.	1.	1.	1.	1.
2.	2.	2.	2.	2.
3.	3.	3.	3.	3.
4.	4.	4	4.	4.

V.Baholash: Mashg'ulotda faol qatnashgan guruh va o'quvchilar baholanadi.

VI.Uyga vazifa: Mavzu savollariga javob yozib kelish. Quyidagi jadvalni to'ldirish.

Maktab MMIBDO ' _____ Sana _____ 20 ____ yil

Mavzu: Yevropa xalqlarining madaniyati.

Mashg'ulotning maqsadi:

Ta`limiy maqsad:-o'quvchilarga Vizantiya madaniyati. Yevropada cherkov va madaniyat. Ma'orif. Me'morchilik va san'at. Qo'lyozma kitob san'ati. Kirill va Mefodiy yozuvlari haqida ma'lumot berish;

Tarbiyaviy maqsad: - o'quvchilargavatanimiz va o'zbek xalqining o'rta asrlarda boshidan kechirgan g'oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o'rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: -o'quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobiliyatini, shakllantirish.

Mashg'ulot turi: yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg'ulot.

Mashg'ulotning metodi: suhbat, tushuntirish, savol-javob, aqliy hujum, fikrlar testi, klaster

Mashg'ulotning jahozi: Mashg'ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmlli ko'rgazma, slayd, kompyuter.

I.Tashkiliy qism:

a) Salomlashish,

c) sinf tozaligini kuzatish,

b) davomatni aniqlash,

d) o'quvchilarni Mashg'ulotga tayyorlash.

II.O'tilgan mavzuni takrorlash:

O'qituvchi o'tilgan Mashg'ulotni uyg'a vazifasini tekshiradi, o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun klaster metodidan foydalaniladi.



O'qituvchi doskaga jadval topshirig'i yozadi. O'quvchilar doskada to'ldiradi.

Kiyev Rusi knyazlari			
Kiyev Rusi knyazlari amalga oshirgan siyosati.			

III.Yangi mavzu bayoni:

Reja:

1.Franklar imperyasida madanyat.

2.Vizantiya madanyati.

3.Tasviriy san`at va me'morchilik.

Buyuk Karl o'z davlatida yangi maorif tizimini yaratadi. Qirol tomonidan 789-yili xalq maktablari joriy etiladi. Qonunga binoan, maktablar ibodatxonalar qoshida tashkil etilib, ruxoniylarga oddiy xalq farzandlarini bepul o'qitish buyurilgan. Saroyda ham mактаб ташкил этилди, унда Карлнинг яқин до'стлари, олимлар-сарой академияси а'золари Mashg'ulot berishgan. Qirol yunoncha akademiya deb nomlagan saroy olimlari birlashmasi antik davr mualliflari asarlarini o'rganish, she'rlar bitish bilan mashg'ul bo'lishgan. Ulardan biri tarixchi-roxib Eyngard asaridan biz Buyuk Karl hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni olamiz. Eyngardni ilmiga chanqoqligi va tirishqoqligi tufayli zamondoshlari «mexnatsevar chumoli» deb ataganlar. Saroy Akademiyasining yana bir a'zosi Alkuin va uning shogirdlari maorifni yoyishda katta xizmat qilgan. Aytishlaricha, Karlning o'zi ham lotin va yunon tillarini mukammal bilgani.

O'rta asrlarning assosiy ko'philik davrida Vizantiya o'ziga xos yuksak madaniyat bilan Yevropaning ilg'or mamlakati bo'lib qoladi. Sababi german qabilalari istilosida inqirozga uchragan G'arbiy Rimdan farqliroq Vizantiyada antik madaniyat an'analari saqlanib, vizanliyaliklar hayotida, yunon hamda Sharq madaniyatlari qorishmasi-ellinizm muhim o'rinn tutgan.

Ilm-fan eng rivojlangan shahar, «fanlar onasi» Afina edi. Platon (mil. av. IV asrda) asos solgan. Afina akademiyasida mashxur faylasuflar ta'llim berardi. Afinada o'qigan talabalar o'z bilimlari chuhurligi va kengligi bilan faxrlanganlar. Konstantinopolda IX asrda Magnavr oliy mактаби, 1045-yili huquqshunoslik va falsafa fakultetlaridan iborat universitet ochiladi. Poytaxtda oliy tibbiyot mактаби ham faoliyat yuritar edi.

Vizantiyada tabiiy fanlar ham rivojlangan, matematika va astronomiya singari ular ham hunarmanchilik, dengizchilik, savdo, harbiy ish, qishloq xo'jaligi taraqqiyotining amaliy extiyojlari uchun

xizmat qilgan. Vizantiyaliklar tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishganlar. Tibbiyot va hunarmanchilik talablari kimyoning yuksalishiga yordam beradi.

O'rta asrda Vizantiyaga shuxrat olib kelgan shishasozlik, kulolchilik, bo'yoqlar tayyorlash sirlari antik davrdan saqlanib kelgan. VII asrda ixtiro "grek olovı" Vizantiyaning dengiz janglaridagi muvaffaqiyatlarini ta'minlagan. Yonuvchi modda bo'lib, uni neft, oltingugurt, selitra, turli qatronlar aralashmasidan tayyorlashgan. Vizantiya harbiy kemalarida foydalanilgan. Uni amalda ishlatishning o'ziga xos sirlari bo'lib, raqiblar bu sirni uzoq payt ocha olmaganlar.

Vizantiya madaniyatining eng mashxur soxasi tasviriy san'at: mozaika, freska va ikonalar yasash bo'lgan. Tasvirning Vizantiyacha uslubi: suratlar uyg'unligi, bo'yoqlar serjiloligi bilan ajralib turadi. Rassomlar cherkov qonunlari, talablari doirasidan kelib chiqib, mavhum emas, jonli kishilarni tasvirlashga intilganlar. Mozaika va freskalari bilan Xori monastiri (hozirgi Istanbuldagi Qahira masjidi) o'z davrining ajoyib me'morchilik yodgorliklaridan hisoblanadi.

Yustinian I davrida Konstantinopolda barpo etilgan Avliyo Sofiya ibodatxonasini xech shubhasiz ilk o'rta asrlarning eng maxobatli me'morchilik inshooti deb atash mumkin. Uning ulkan gumbazi (diametri 31,5 m) bo'lib, 40 ta deraza gulchambari bilan qurshalgan. Osmon gumbazi kabi ushbu gumbaz go'yo xavoda muallaq turgandek tuyuladi. Turli xil toshlar va oyna parchalaridan yasalgan juda ajoyib mozaikalar ibodatxona devorlarini bezagan.

X-XI asrlarda to'g'ri burchakli ibodatxonalar o'rniga ko'rinishidan xochsifat, o'rtasi xoch gumbazli ibodatxonalar barpo qilingan.

Ibodatxonalar bir vaqtida osoyishtalik va xudoning dargohi hisoblangan. Ibodatxonalarni bezatishda qat'iy cherkov qonunlariga Iso payg'ambar, Bibi Maryam, avliyolar va Bibliyadan manzaralarni tasvirlash qonunlariga rioya qilingan. Xristian diniga oid sa'natning maqsadi o'lgandan keyin jannatning roxat-farog'atiga qanday erishish yo'l-yo'rig'ini dindorlarga targ'ib qilishda iborat edi. Ibodatxonalarga va yashash joylariga-Isoning, Bibi Maryamning chiroyli rasmlari, muqaddas kitoblardan manzaralar tasvirlangan silliq taxtachalar qo'yilgan.

O'rta asr Yevropasiga Vizantiya asosiy madaniyat tarqatuvchi edi: Uning ustalari, musavvirlari, me'morlari boshqa mamlakatlarga taklif etib turilgan, shuningdek, ustalar va olimlar qo'lida Yevropa yoshlari taxsil olganlar. Janubiy va Sharqiy slavyanlar madaniyatiga Vizantiya kuchli ta'sir ko'rsatadi. Vizantiyadan Kiiev Rusi xristianlik dinimi qabul qiladi. Rusdag'i dastlabki ibodatxonalar ham vizantiyalik ustalar tomonidan qilinib jihozlangan. G'arbiy Yevropada ham ilk o'rta asrlarda ibodatxonalar, monastirlar qurilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Me'morchilikda roman uslubi ayniqsa yuksalib, unda ibodatxonalar ulkan, salobatli devorlari gumbazluri, qalin uslimlari, unchalik katta bo'Imagan derazalari, darvoza va eshiklari arkali qilib qurilgani bilan ajralib turadi.

Roman uslubida qurilgan eng mashxur binolar: Fransiyadagi Puate, Klyuni, Arl ibodatxonalar; Germaniyadagi Shpeyer, Vorms, Maynts, Axendagi cherkovlar hisoblanadi.

Cherkov va maorif. G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar madaniyati xristian cherkovi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Cherkov ilm, maorif, adabiyot va san'atga bevosita ta'sir o'tkazgan. Shuning uchun kishilarning dunyo haqidagi tasavvurlari cherkov hamda din ta'limotiga asoslangan edi.

IV.Mustahkamash: O'qituvchi yangi mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga rasm tarqatadi. O'quvchilar shu rasmga qarab mavzuni mohiyatini ochib beradilar.



35- rasm. «Grek olovi».



36- rasm. Avliyo Sofiya ibodatxonasi.



37-rasm. Fransiyadagi Puate ibodatxonasi.



38-rasm. O'rta maktab o'quvchilari.

V.Baholash: Mashg'ulotda faol qatnashgan, uyg'a vazifa bajargan, o'tilgan va yangi mavzuni mustahkamlashda ishtirot etgan o'quvchilar baholanadi.

VI.Uyga vazifa: Mavzu savollariga javob yozib kelish.

Mavzu: Arabiston ilk o‘rta asrlar boshlarida.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Ta`limiy maqsad:-o‘quvchilarga Arab qabilalari va ularning ijtimoiy turmushi. VII asr boshlarida Arabistondagi iqtisodiy, siyosiy vaziyat. Islom dinining vujudga kelishi. Islom dini, uning mohiyati haqida ma`lumot berish;

Tarbiyaviy maqsad: - o‘quvchilargavatanimiz va o‘zbek xalqining o‘rta asrlarda boshidan kechirgan g‘oyat murakkab va mashaqqatli hayoti haqida tushuncha berish va bundan saboq olishni o‘rgatish;

Rivojlantiruvchi maqsad: -o‘quvchilarni dunyoqarashini, nutqini, fikrlash qobilyatini, shakllantirish.

Mashg‘ulot turi: yangi bilimlarni bayon qilish va egallash Mashg‘ulot.

Mashg‘ulotning metodi: suhbat, tushuntirish, savol-javob, aqliy hujum, fikrlar testi, klaster

Mashg‘ulotning jihizi: Mashg‘ulotlik, siyosiy xarita, tarqatma, rasmi ko‘rgazma, slayd, kompyuter.

I.Tashkiliy qism:

a) Salomlashish, b)davomatni aniqlash, c) sinf tozaligini kuzatish, d) o‘quvchilarni Mashg‘ulotga tayyorlash.

II.O‘tilgan mavzuni takrorlash: O‘qituvchi o‘tilgan Mashg‘ulotni uyga vazifasini tekshiradi, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun o‘quvchilarga savollar beriladi.

1.Franklar imperyasida xalq maktablari qachon va kim tomonidan joriy etilgan?

2.Fanlar onasi den nom olgan shahar?

3.Afina akademysiga kim asos slogan?

4.VII asrda Vizantiyada nima ixtiro qilingan?

5.Tasviriy san`atning qanday sohalari bo‘lgan?

Savollarga javob bergan o‘quvchilar rag‘batlantirib boriladi.

III.Yangi mavzu bayoni:

Reja:

1.Arabiston.

2.Ijtimoiy tengsizlikning paydo bo‘lishi.

3.Islom dini va arablarning birlashuvi.

Arab qabilalari Arabiston Yarim oroli va unga tutash hududlarda yashaganlar. Ular somiy (semit) xalqlaridan bo‘lib, somiylarga arablardan tashqari: Yahudiylar, ossuriylar, finikiyaliklar va oromiyalar xam mansub bo‘lishgan. Bu xalqlar Qadimgi Sharqning mashxur davlatlari: Akkad, Bobil, Isroil podsholiklarini tuzishgan.


Ko‘chmanchi arablар-badaviylar (sahroyilar) boshqa chorvador qabilalar singari: tuyachilik, qo‘ychilik va yilqichilik bilan shug‘ullanib kelganlar.

Arabistonning janubi va g‘arbidagi o‘troq dehqonchilik aholisi soy va jilg‘alar, quduqlar bo‘ylarida xurmo bog‘lari va uzumzorlar barpo etganlar. Xuddi shu yerlardan Vizantiyadan janubga, Afrikaga va Hindistonga boradigan karvon yo‘li o‘tardi. Buyuk Ipak yo‘li mamlakatlarida notinchlik paytlarida karvon yo‘llari Arabistonga siljirdi. Zamonalr o‘tib bu karvon yo‘llari bo‘yida aholi qo‘rg‘onlari va shaharlar vujudga keladi. Ularda yashagan aholi esa karvon yo‘llaridagi savdogarlar, sayyohlarga xizmat qilish bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Bu qo‘rg‘onlardan eng yirigi Makka shahri bo‘lgan. Ko‘chmanchilar mollarini shaharlarga keltirib, mahalliy aholidan don, gazlama, qurollarga ayirboshlagan.

Arabistonning eng taraqqiy etgan viloyatlari-Yaman va Hijoz edi. Yaman yerlari unumdorligi bilan nom chiqqangan, bo‘lsa suv etarli bo‘lganidan mevali daraxtlar, xurmozorlar bunyod etilgan. «Yaman» arabcha «xaq», «baxtli» ma’nosini bergen. Arablarga taqlid qilgan rim tarixchilari Yamanni «Baxtli Arabiston» (Arabia felix) deb nomlaganlar.

Ko‘chmanchi badaviylar ko‘plab urug‘- qabilalardan tashkil topgan. Qabila yer, yaylov, suv manbalariga birgalikda egalik qilsa, mollar ayrim oilalarga tegishli edi. VI-VII asrlarda axoli soni ko‘payib qabilalar orasida suv manbalari va yaylovlardan uchun kurash kuchayadi. Ularda turli ilohlarga sig‘inilgani qabilalar orasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtirgan.



Urushlarda olingen harbiy o'ljalar qabila sardorlari, harbiy yo'lboshchilarning boyib borishi, natijada urug'-qabila zodogonlari shayxlarning shakllanishiga olib keladi va bu jarayon, VII asrning boshlarida urug'chilik tuzumining inqirozini tezlashtiradi.

Eron shohi Xisrav I 570-yili Yamanni istilo qilishi bilan karvon yo'li eronliklarga qarashli ikki daryo oralig'iga siljiydi. Savdoning inqirozi uning hisobidan yashovchi Hijoz va Yaman shaharlaridan boshlab, ko'chmanchi badaviylargacha, barcha aholining hayotini mushkullashtirgan. Bu holat markazi Makka shahri bo'lgan, asosan quraysh qabilasi yashaydigan Hijozda ravshan namoyon bo'ladi.

Islom dini va arablarning birlashuvi. Iqtisodiy inqiroz ko'chmanchilarni yangi yerkarni islilo qilishga, yaylovlarni kengaytirishga undaydi. Bu paytda arablarga qo'shni Vizantiya, Eron kabi davlatlarda iqtisodiy tanglik, kuchli qo'shning xo'imasligi xam arablarga qo'l keladi. Vujudga kelgan vaziyatda arablarning birlashuviga yangi-islam dini xizmat qiladi.

Islom (arab tilida-«itoat», «tobelik») jahonda keng dindan biridir. Unga e'tiqod qiluvchilar musulmonlar deb ataladi. Arablar istilosи va targ'iboti natijasida: Janubiy-Sharqiy Osiyo, Shimoliy va G'arbiy Afrikada keng tarqalgan.

Islom tarixchilari uning asoschisi bo'lajak payg'ambar Muhammad alayhissalomni 570 yili Makkada tavallud topganini yozadilar. Otalari Abdulloh bu paydda savdo ishlari bilan Suriyada bo'lib, Makkaga qaytishida qo'qqisdan vafot etadi. Uning keyingi hayoti bobosi Abdulmutallib homiyligi ostida o'ta boshladi. Onasi va bobosining o'limidan so'ng u amakisi Abu Tolib tarbiyasida qoladi.

Islom dini manbalarida yozilishicha, Muhammad alayhissalomga 610-yildan boshlab Alloh taolodan ilohiy oyatlar ayon bo'la boshlaydi. U qudratli yakka-yu yagona xudodan, ya'ni Alloh taolodan o'zga hech qanday xudo yo'q deb, o'zini rasululloh-xudoning elchisi, payg'ambari deb e'lon qildi.

Qur'on (arab tilida «qiroat», «o'qish»)-islom diniga e'tiqod etuvchilarning muqaddas kitobi bo'lib, Alloh taolo tomonidan Muhammad (s.a.v.)ga vaxiy orqali nozil qilingan. Kitob Alloh taolonning payg'ambar alayhissalom orqali insonlarga buyurgan amallar majmuasidan iborat. Qur'on yigirma 3 yil davomida nozil qilingan bo'lib, 114 suradan tashkil topgan. Dastlab Makka qurayshlari tomonidan Yangi din yaxshi qarshilanmaydi. Natijada 622-yil 1 Muhammad (s.a.v.) o'z tarafdarlari bilan Yasrib (Madina)ga keladi. Bu voqeа hijrat (ko'chish) nomini olib, musulmon yil hisobining boshlanish sanasi hisoblanadi. Yasrib Muhammad (s.a.v.)ni yaxshi kutib oladi. Musulmon bo'lgan madinaliklar va ularga qo'shilgan ko'plab arab qabilalarining Makka uchun kurashi muvaffaqiyatl tugaydi. Shahar jangsiz olinib, muqaddas dargohlar qabila diniy sanamlari, ma'budalaridan tozalanadi.

IV.Mustahkamash: Insert jadvalini "B.B.B" usulida to'ldirish:

V-	V	+	?	bilaman
+-				bilim oldim
?-	3	5	2	bilmoxchiman

"Insert usuli raqamlar qo'yib belgilar asosida o'qitish" Masalan:

- | | | | |
|---|---|---|---|
| 1.Arab qabilalari yashagan hududlar | V | 6.Muhammadning(s.a.v)tug'ilishi | + |
| 2.Arablarning mashg'ulotlari | V | 7.Islom dinining yoyilishi | + |
| 3.Rivojlangan viloyatlari | + | 8.Qur'on va hadis ilmi | ? |
| 4.Ijtimoiy tengsizlikning vujudga kelishi | + | 9.Makkadan Madinaga hijrat | + |
| 5.Arablarning birlashish sabablari | + | 10.O'rta Osiyoga islam dinining yoyilishi ? | |
- O'quvchilar jadvalni chizib faqat raqamlarni qo'yishadi.O'quvchilar nimalarni o'rgangan liklarini tezis shaklida og'zaki aytishadi,buni barcha o'quvchilar raqamlar yoniga belgilaydi va oxirida belgilarni sanab,jadvalni to'ldirishadi.

V.Baholash: Mashg'ulotda faol qatnashgan,uyga vazifa bajargan, o'tilgan va yangi mavzuni mustahkamlashda ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi.

VI.Uyga vazifa: Mavzu savollariga javob yozib kelish.

veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu
nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki
nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob
beriladi*

**tarix fanidan 7-sinf iqtidorli o‘quvchilarga
34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun
telegramdan yozing.**



Narxi: 15 ming so‘m

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabihev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To‘liq holda olganingizdan so‘ng:

Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.